



## PROFILAKTIKA INSPEKTORINING JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARDAN KELADIGAN MUROJAATLARNI KO`RIB CHIQISH FAOLIYATI

*O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 312-guruh kursanti  
Mahmudov Hikmatillo Qudratjon o`g`li*

**Annotatsiya:** *Ilmiy maqolada profilaktika inspektorining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko`rib chiqish asosilari va taribiga doir ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Shu bilan birgalikda ushbu jarayonda profilaktika inspektorlari tomonidan yo`l qo`yilayotgan asosiy kamchiliklar va vujudga kelayotgan muammolar ham yoritib berilgan. Bundan tashqari, ushbu yuzaga kelayotgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun amalga oshirilishi lozim bo`lgan chora-tadbirlar ham belgilangan.*

**Annotation:** *The concept of the procedure for admission of individuals and legal entities at the bases of law enforcement agencies, the current situation, the legal framework, the main features, the views of scientists, experts and practitioners on the improvement of this activity, special literature on the subject, hinders the improvement of this activity. Factors, statistical data showing the results, advanced foreign experience were studied and analyzed, and proposals and recommendations were developed to consolidate the positive results achieved and further improve the activities.*

Bugungi kunda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni hamda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, jamiyat, davlat va shaxsning qonuniy manfaatlarini har qanday ko'rinishdagi tahdidlardan himoya qilish –mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni, millatlararo totuvlikni hamda barqaror taraqqiyotni ta'minlashnig asosiy omillaridan biridir. “O`zbekistonimizda tinchlik-osoyishtalik va xavfsizlikni, fuqarolar va millatlararo ahillik va hamjihatlikni ko`z qorachig`idek saqlash va mustahkamlash bundan buyon ham eng muhim, hal qiluvchi vazifamiz bo`lib qolishi darkor”.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2017 yil 10 apreldagi PF-5005-sonli “Ichki ishlar organlarining faoliyati

samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonida IIO xodimlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish hamda ularning murojaatlarini ko`rib chiqishda sansolarlik, loqaydlik kabi holatlarga yo'l qo'yilayotgani, murojaatlar bilan ishlashda o`z vaqtida ko`rib chiqish qoidalariga amal qilinmayotganligi holatlari bartaraf etilishi lozim bo`lgan kamchiliklardan biri sifatida sanab o'tildi.

Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagい PQ-2833-sonli “Huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga asosan huquqbazarliklarning samarali profilaktikasini amalga oshirish davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi,



mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa davlat tashkilotlari, shuningdek xo'jalik boshqaruvi organlarining ustuvor vazifalaridan biri ham fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini, shu jumladan aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri va ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari faoliyatida faol ishtirok etish, fuqarolar murojaatlari va muammolariga bepisand munosabatda bo'lish va byurokratik holatlarga yo'l qo'ymaslik orqali ta'minlash nazarda tutildi.

Profilaktika inspektorining asosiy vazifalaridan biri bu -jismoniy va yuridik shaxslarni murojaatlarini ko'rib chiqish hisoblanadi. Profilaktika inspektori har kunlik xizmat faoliyati jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish va ularning murojaatlarini ko'rib chiqish bilan bog'liq vazifalardan tashkil topadi.

Profilaktika inspektorlari o'z xizmat xonalarida ya'ni IIO tayanch punktlarida(IIO TP) jismoniy va yuridik shaxslarni hamda ularning vakillarini qabul qilishni tashkil etadi. Jismoniy va yuridik shaxslarni va ularning vakillarini qabul qilish davlat organining rahbari yoxud boshqa vakolatli shaxs tomonidan amalgalash oshiriladi. Buning uchun davlat organlarida maxsus tarkibiy bo'linmalar tashkil etilishi mumkin, qabul uchun mas'ul bo'lgan mansabdar shaxslar belgilanadi.

Profilaktika inspektorining jismoniy va yuridik shaxslarni murojaatlarni ko'rib chiqishfaoliyatining o'ziga xos xususiyatlari ularga beriladigan murojaatlarning mazmun-mohiyatiga bog'liq sanaladi.

Profilaktika inspektorlariga asosan quyidagi murojaatlar bilan qabulga kelishadi:

- ma'muriyhuquqbazarlik to'g'risidagi murojaatlar;
- jinoyat to'g'risidagi murojaatlar;

- hal etilishi profilaktika inspektorining vakolatlariga kirmaydigan masalalar bo'yicha murojaatlar;

- hal etilishi profilaktika inspektorining vakolatlariga kiradigan masalalar bo'yicha murojaatlar.

Ichki ishlar organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish va murojaat etish huquqini ta'minlash jamiyatda:

birinchidan, murojaat qiluvchi jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

ikkinchidan,boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

uchinchidan, axborot vajamiyat xavfsizligini ta'minlash jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiluvchi qonun hujjatlarining talablariga bevosita rioxha etishni taqozo etadi.

Profilaktika inspektorining jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish faoliyati bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi mavzusida so'z ketar ekan ushbu mavzuga doir 2019 yil 16 iyulda "Fuqaro murojaatlari va ma'muriy tartib-taomillar: O'zbekiston va Germaniya tajribasi" mavzuida xalqaro ilmiygamaliy seminar o'tkazildi. Mazkur seminarda asosiy e'tibor mamlakatimizda fuqarolar murojaatlari, ularni qabul qilish, ma'muriytaomillar bo'yicha milliy



qonunchilik va Germaniyaning ilg'or tajribasi asosida mazkur sohani rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga qaratildi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat yetish xukuklari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan mustaxkamlanadigan xamda ta'minlanishi kafolatlanadigan huquqlari xisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy va yuridik shaxslar murojaati bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar tug'risida" 2016 yil 28 dekabrdagi PF 4904-sonli farmoni mamlakatda murojaatlar bilan ishlash soxasida katta isloxoatlarni boshdab berdi.

Ushbu Farmon barcha darajadagi davlat organlari faoliyatida "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan tamoyilni amalda qaror toptirish, jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish hamda ularning murojaatlari bilan ishlashni sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish maqsadiga yo'naltirilib, uning asosida Prezident devoni ishlar boshqarmasining Fuqarolar qabulxonasi negizida Prezidentning Xalq qabulxonasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaxrida Prezidentning Xalq qabulxonasi va Prezidentning virtual qabulxonalari tashkil etildi. Aytish mumkunki, murojaatni xal etish iborasi ostida aynan murojaatda keltirilayotgan muammoning yechimini aniqlash xamda mummoni bartaraf etishga qaratilgan chorallarni ko'rishga doir xarakatlar tushuniladi.

Bugungi kunda profilaktika inspektorlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarni va ularning murojaatlarini ko'rib chiqish va qonuniy hal etish mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. Darhaqiqat, fuqarolarning ariza va shikoyatlari hal etilsa, aholining amaldagi qonunlarga, murojaatlarni ko'rib chiqqan davlat idorasiga bo'lgan ishonchi yanada mustahkamlanadi.

Profilaktika inspektorlari tomonidan jismoniy va yuridik shahslarni qabul qilish faoliyati bo'yicha amalga oshirilayotgan tegishli chora-tadbirlarga qaramasdan, mazkur yo'nalishda quyidagi muammo, kamchiliklar aniqlandi:

- profilaktika inspektorlariga huquqbazarlik alomatlaridan tashqari boshqa bir qancha turdag'i murojaatlar bo'yicha qabulga kelishayotganligi sababli ularning ish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

- ayrim fuqarolar bilan ishlashda qonunda belgilangan muddatlarga qat'iy rioya qilmaslik, arizalarni atroflicha ko'rib chiqmasdan yuzaki hulosalar tayyorlash, og'zaki murojat bilan kelganlarni jadval asosida qabul qilmaslik holatlari uchrab turibdi;

- joylarda mas'ul hodimlar fuqarolarni qabul qilish hamda ularning murojatlari bilan ishlash sohasida qonunchilikdagi yangiliklardan yetarli darajada habardor emasligi, bu borada tegishli targ'ibot va o'qitish ishlari talab darajasida tashkil etilmaganligi, amaliyotda profilaktika inspektorlarining ko'pchiligi ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish, tegishli protsessual hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini yaxshi bilmaydilar hamda ularni amalda qo'llash bo'yicha yetarli ko'nikmalarga ega emasligi;

- ayrim profilaktika inspektorlari tomonidan qabulga kelgan fuqarolarni hisobga olmaslik, ularning murojaatlarini qonuniy tarzda ro'yxatdan o'tkazmaslik holatlarining uchrab turishi;



- ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish jarayonida huquqbuzarning chet elga chiqib ketganligi holati sababli ishni o'z vaqtida, qonunda belgilangan muddatda ko'rib chiqish bilan bog'liq muammolar yuzaga kelib, bunday hollarda ishni ko'rib chiqish tartibi va muddatlari ma'muriy qonunchilikda belgilab berilmaganligi va boshqa.

Yuqoridagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish uchun jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagilar taklif qilinadi:

- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini toifalarga ajratish hamda hududiy ichki ishlar organlariga kelib tushgan murojaatlarning tegishliligi bo'yicha yuborish tizimini joriy etish;

- IIO TPlarida jismoniy va yuridik shaxslarning qabul qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida xorijiy davlatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarining ilg'or tajribalarini o'rghanish va ushbu faoliyatga joriy etish;

- IIO TPda jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish bo'yicha kartochka tizimini joriy etish;

- ichki ishlar organlariga kelib tushgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslashda qonunda belgilangan muddatlarga qat'iy rioxqa qilish, atroficha ko'rib chiqib, xulosalar qilish, profilaktika inspektorlarining tayanch punktida jismoniy va yuridik shaxslarning hamda ularning vakillarini tasdiqlangan jadval asosida qabul qilishlarini to'liq ta'minlanishi yuzasidan IIB boshlig'inинг huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha o'rnbosari - XPB boshlig'inинг nazoratini kuchaytirish;

- hududiy ichki ishlar organlarida avvalo jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslashga mas'ul xodimlarni ya'ni profilaktika inspektorlarini mazkur yo'nalishdagi qonunchilikdagi o'zgarishlar hamda vazirlikning tegishli buyruq, ko'rsatmalari talablari bo'yicha o'qitishni tashkil etish; - ichki organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilganda, ulardan kelib tushgan murojaatlarda bila turib yolg'on ma'lumotlar bayon etilganligi aniqlansa, murojaatlarni ko'rib chiqishga sarflangan xarajatlar jismoniy va yuridik shaxsdan sudning qaroriga ko'ra undirib olinishi haqida hamda "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunni aholi o'rtasida keng targ'ib qilish; - zamonaviy axborot texnologiyalarining taraqqiy etayotganligini hisobga olib profilaktika inspektorlari o'ziga tegishli bo'lgan ma'muriy xududda jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish, ijtimoiy maslaxatlar berish, targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish bo'yicha ijtimoiy tarmoqlarda profilaktika inspektorining shaxsiy kanallarini ochish va uni muntazam nazorat qilib borishi; - ushbu sohанин o'ta muhimligidan kelib chiqib, tuman (shahar) IIB HPBlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojatlari bilan ishlaydigan inspektor lavozimlaridagi xodimlarni oliv ma'lumothi yuridik kadrlardan tayinlash hamda tuman (shahar) xalq deputatlari kengashida ularning hisobot berishi tartibini jori etish.